

***Sizning ta'limingiz olmagan kim bor,
Siz-ku yuraklarda ilk ziyo yoqqan.
Olimmi, shoirmi va yo san'atkor,
Ilk bor sizga tomon ustoz deb boqqan.***

TAMADDUNURI

Har qanday taraqqiyotning
asosi fandır

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal ISSN 2181-8258



*Aziz ustozlar! Bayramingiz
muborak bo'lsin!*



MUNDARIJA

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal

MUASSISLAR: Beruniy tuman hokimligi
"Tafakkur-tamaddun" OOO

"Beruniy avlodlari" jamoat fondi

HAMKORLARIMIZ:

O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi

Qoraqalpog' davlat universiteti

Urganch davlat universiteti

Xorazm Ma'mun akademiyasi

TAHRIR HAY'ATI:

BOSH MUHARRIR:

Munavvara QURBONBOYEVA

BO'LIM MUHARRIRI:

Anvar ALLAMBERGENOV

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.

Qahramon QURONBOYEV, s.f.d., prof.

Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)

Zabixulla SAIPOV, s.f.n., (PhD)

Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)

Karlig'ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)

Anvar ABDULLAYEV, t.f.f.d., dots.

Gavhar DURDIYEVA, arx.f.d., prof.

Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.

O'tkir ABDULLAYEV, t.f.d., (DSc)

Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD)

Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d.

Alima BERDIMURODOVA, fal.f.d.

Shohida SODIQOVA, sots.f.d.

Abdug'ani XOLBEKOV, sots.f.d.

Sobir XODJAYEV, sots.f.d., (PhD)

Zarifboy DO'SIMOV, fil.f.d., prof.

Olmos ULVIY, f.f.d., prof.

Doniyor YULDASHEV, fil.f.d. (DSc)

Vahob RAHMONOV, f.f.n., dots.

Qozoqboy YO'LDOSHEV, p.f.d., prof.

Safo MATJONOV, p.f.d., prof.

Qaxramon IBADULLAYEV, p.f.d., (DSc)

Masharib ABDULLAYEV, s.f.f.d., (PhD), k.i.x.

Anvar ISMOILOV, s.f.f.d., (PhD), k.i.x.

G'ayrat MAMBETKADIROV, s.f.d.

Svetlana MAMBETULLAYEVA, b.f.d., prof.

Otanazar RAHIMOV, b.f.n. ped.f.d. prof.

Umarbek ABDURAHIMOV, b.f.f.d. (PhD)

Nuraddin RO'ZIBOYEV, q.x.f.d.

Ne'matullo XUDAYBERGANOV, q.x.f.d., (PhD)

Zokir RAJABOV, q.x.f.d., (PhD), k.i.x.

Roza XOJAMURATOVA, g.f.d.

Sattorbergan AVEZOV, g.f.n., dots.

Keunimjay ALLANAZAROV, g.f.n., dots.

Furqat RAJABOV, g.f.d., dots.

Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Dilafroz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Dilbar URAZBAYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Mels QOBULOV, tib.f.d., prof.

Bozorboy ORAZALIYEV, t.f.n.

Davlatyor BOLTAYEV, t.f.n., dots.

FALSAFA

Ulug'bek YAZDONOV, Sardor SANAQULOV. "Subyektiv virtualizm" salbiy ta'siridan xoli ta'lim va tarbiyani tashkillashtirish imkoniyatlari.....	2
Nargis ALIMATOVA. Oliy ta'lim muassasasi raqobatbardoshligi va ijtimoiy fikr.....	7
Odilbek RADJAEV. Ilmiy salohiyat va ilm-fan sohasidagi islohotlar.....	13
Umida DOSCHANOVA. Xorazm mutafakkirlar gumanistik qarashlarining falsafiy mohiyati va xususiyatlari.....	16
Nodirjon TOG'AYEV. Amir Temurning ijtimoiy-siyosiy qarashlarida adolatli jamiyat barpo etish g'oyalari.....	25
Sevara TURABOVA. Ilmiy bahs-munozara masalasining bilish faoliyat turi sifatida zamonaviy mantiqda qo'yilishi.....	29
M'uminaxon RAHIMOVA. Abdurayuf Fitratning "Ra'xbari najot" asarida keltirilgan axloqiy-falsafiy va ijtimoiy-psixologik g'oyalar.....	36
Nozim MUMINOV. Социальная динамика суфизма.....	97
Aminjon AYMATOV. Tabiatga estetik munosabatni rivojlantirishda ekologik ong va madaniyatning funksional rolini oshirish.....	117
Ёркиной ЭРНАЗАРОВА. Жамиятнинг янги ривожланиш босқичида давлат хизматларини ислоҳ этишнинг объектив зарурати.....	125

PEDAGOGIKA

Бақварган АЛЛАБЕРГЕНОВ. Типы синтаксических ошибок, связанные с согласованием (на примере речи студентов-узбеков).....	22
--	----

TARIX

Sirojbek ALLANAZAROV. Xorazm Xalq Sovet Respublikasi davriga doir arxiv hujjatlarining tarixiy tahlili.....	33
Roviyajon OTAMURADOVA. Mustaqillik yillarida Xorazm vohasining tarixiy-madaniy merosi: arxeologik-etnografik ekspeditsiyalar asosida.....	40
Юлдуз ГАЙБУЛЛАЕВА. Совет ҳукумати даврида хотин-қизлар кийимлари савдоси.....	45
Обиджон АЛИМОВ. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Урал, Бошқирдистон ва Сибирь фронт орти ишларига жалб этилган ўзбеклар ва уларнинг меҳнат шaroитлари.....	48
Zohidjon ABDULLAEV. An overview of the history of ancient Chust culture.....	111
Bobomurod ABDISHUKUROV. Amir Temur hayoti va faoliyati: adabiyotlar tahlili.....	147

FILOLOGIYA

Сурожбек РУЗМЕТОВ. Заимствованные слова-гибриды в речи русскоязычных и узбекорязычных представителей старшего поколения.....	19
Zayniddin NARMURATOV. Ingliz tilidagi ba'zi ta'lim, ilm mazmunli frazemalarning lingvomadaniy xususiyatlari.....	52
Nafisa KARIMOVA. Ijod laboratoriyasida Bobur adabiy merosi.....	56
Nasiba KURBANBAYEVA. Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida rang va ohang uyg'unligi.....	59
Nargiza SALAMOVA. Translation problems of proverbs.....	63
Ishankul NARMURADOV. Rus tili o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanish afzalliklari.....	65
Гулшад УСМАНОВА. Методика преподавания русского языка как наука.....	68
Sayyora SAIDOVA. Ijtimoiy dialektizmlarda areal o'ziga xoslik.....	71
Лола АЛИБАЕВА. Особенности перевода пословиц, поговорок и заголовков в русском языке.....	74
Bobur NURMAMATOV, Oleg MIROTIN. Reflexive and communicative approach in teaching russian for professional purposes.....	76
Visola SAMADOVA. Ingliz va o'zbek tillarida frazeologiyaning o'rganilishi, tarixi va bosqichlari.....	79
Мехрибон АМИНОВА. Коммуникативно-прагматические особенности русских фразеологических единиц.....	82
Римма БИКСАЛИЕВА. Проблема определения и классификации неологизмов.....	85
Manzura KARIMBOYEVA. Transnizmatsiya usulida hosil qilingan laqablar va ularning leksik-semantic tahlili.....	89
Oysuluv O'RALOVA. Ingliz va o'zbek tillarida zoonim konseptli maqollar strukturasi.....	93
Lola ABDULLAYEVA. Theories and methods for forming the sociolinguistic competence in english lessons.....	101
Nodir KAYUMOV. Eroniy xalqlar adabiyotida "Ozar" obrazining badiiy talqini.....	105
Iqboloy YOVMUDBOYEVA. Deputatlar nutqida kommunikativ maqsad va ifodaning konflikti.....	108
Gulchehra BOLTAYEVA. Muxammas janri genezisida xalq og'zaki ijodining o'rni.....	114
Xurshida HAMRAKULOVA. Bolalar adabiyoti taraqqiyotiga Hamza ijodining ta'siri.....	120
Alijon ALLABERDIYEV. Buxoro-o'g'uz shevalarida yuklamalarning qo'llanishi.....	129
Musharraf Rahimova. Omon Matjon ijodida "Eski o'choq" obrazi.....	132
Qonisbay SARSENBAEYEV. To'lepbergen Qayipbergenov povestlarida qahramon obrazi va xarakter yaratish mahorati.....	135
Аида ТОЛИПОВА. Образнинг асар структурасидаги ўрни.....	139
Nodir MUHAMMADIYEV. Ona tili darsliklariga xos terminlar ifodalanishida sheva unsurlarining o'rni.....	143
Sanobar KHAITOVA. The use of soil terminology.....	149

Manzilimiz: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Beruniy tumani. Web-sayt: <https://tamaddunnuri.uz>

e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com. Telegram kanali: <https://t.me/tamaddunnuri>.

Tel.: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.

Bosishga 26.10.2023-yilda ruxsat berildi. Qog'oz bichimi 60x84 %. Nashriyot hisob tabog'i 6,5.

Indeks – 960. ISSN 2181-8258. Jurnal 2016-yil 28-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0843 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri" dan olindi deb izohlanishi shart. Matn hamda reklamalardagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

"ADAD PLYUS" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona. Toshkent shahri, Chilonzor ko'chasi, 28-uy.

2023-yil, 10-son (49). **Ushbu son** "Tamaddun nuri" jurnali tahririyatining kompyuterida sahifalandi. Buyurtma №17.

Rassom: Alibek ABDURAHMONOV

Sahifalovchi-bezovchi: G'iyosiddin O'NAROV

Texnik muharrir: Ulug'bek SAIDOV

AMIR TEMURNING IJTIMOYIY-SIYOSIY QARASHLARIDA ADOLATLI JAMIYAT BARPO ETISH G'OYALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temurning jamiyat va davlat haqidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlarida mukammal insonparvar jamiyat o'rnatishga qaratilgan harakatlari bayon etilgan. Shuningdek Amir Temurning har bir qadami o'z saltanatida adolat o'rnatish, bosib olingan yerlar haqlarining madaniyatini hurmatlash, uni o'zlashtirish va boyitishga qaratilganligi, u xalqlarning azizu-avliyolarini hurmatlab o'z o'rinlariga qo'yilganligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Temur tuzuklari, jamiyat, davlat, tarix, xalq, qonun, adolat, ilm, vatanparvarlik, insonparvarlik, sabr-toqatlilik, tinchliksevarlik.

Аннотация: В данной научной статье рассматриваются усилия Амира Темура по созданию идеального гуманного общества в контексте его социально-политических взглядов на общество и государство. Авторы подчеркивают, что каждый шаг, предпринятый Амиром Темуром, был направлен на установление справедливости в его царстве, уважение к культуре и правам завоеванных народов, а также освоение и обогащение этих земель. Отмечается, что Амир Темур проявлял уважение к святым и святыням народов, что способствовало его признанию и укреплению власти.

Ключевые слова: Амир Темур, Уложения Темура, общество, государство, история, народ, закон, справедливость, наука, патриотизм, гуманизм, терпение, мир.

Annotation: This scientific article examines the efforts of Amir Temur to create an ideal humane society in the context of his socio-political views on society and the state. The authors emphasize that every step taken by Amir Temur was aimed at establishing justice in his kingdom, respect for the culture and rights of the conquered peoples, as well as the development and enrichment of these lands. It is noted that Amir Temur showed respect for the saints and shrines of the peoples, which contributed to his recognition and strengthening of power.

Key words: Amir Temur, Temur's Codes, society, state, history, people, law, justice, science, patriotism, humanism, patience, peace.



**Nodirjon
TOG'AYEV**
Sharof Rashidov
nomidagi Samarqand
davlat
universiteti
falsafa doktori (PhD)
dotsent



Markaziy Osiyoda Renessans davri Yevropadan farqli ravishda ikki bosqich-da bo'ldi: birinchisi IX-XI asrlarda va ikkinchisi XIV-XVI asrlarda bo'lib, u o'rta asrlar madaniyatining gullab-yashnagan, insonning beqiyos imkoniyatlariga, aql-idroki, irodasi, qobiliyatlariga ishonch ruhi bilan sug'orilgan yangi davr bo'lgan. Amir Temur hamda Temuriylar davrini ham ana shu davrga kiritish mumkin. Unda O'rta Osiyo zaminidagi ilm-fan, she'riyat, san'atning taraqqiy etganligini ko'rish mumkin. Shoirlar, muarrixlar, tasavvuf yo'nalishidagi mualliflarning ijodida davlat va jamiyat, insonparvarlik g'oyalari yaqqol namoyon etila boshlandi.

Amir Temur o'zi yashab turgan jamiyatni eng yetuk jamiyat, farovon hayot bo'lishi uchun kurashibgina qolmay, balki uni butun dunyoda tantana qilish, dovrug' solishi mumkinligiga ishongan edi. Chunki u shu maqsaddagina jahongirlik libosini kiygan edi. Ko'rinib turibdiki, Amir Temur ijtimoiy-siyosiy qarashlarida mukammal jamiyatni orzu qilishdan ko'ra ko'proq uni amalga oshirish va uni mas'uliyatini o'z zimmasiga olish yaqqol sezilib turadi. Shuning uchun ham Amir Temurning mutafakkir-sarkarda sifatidagi o'ziga xos tomoni shundaki, u o'zi hukmronlik qilgan saltanat timsolida mukammal jamiyatni qurdi va uni har tomonlama mustahkamlashga harakat qildi. Biz uning "Temur tuzuklari"da buni aniq ko'rishimiz mumkin. Lekin, B.Ahmedovning fikricha, "“Temur tuzuklari” ham feodalizm shariotida bitilgan boshqa asarlar singari hukmron sinfnin maqsad va manfaatlarini ko'zlab yozilgan, o'sha sinfnin dunyoqarashini ifoda etgan. Asarda Amir Temurning harbiy yurishlari buzug odamlarning ko'payishini oldini oluvchi harakat deb, o'z ozodligi va vatanining mustaqilligini himoya qilgan xalqlar esa kofir, buzg'unchi, bezori (ovbosh) deb atalgan. Tobe'likdan bo'yin tovlagan yoki shunga intilgan ne-ne yurtlarning xalqi "oquylik" qilinib, o'zga yurtlarga majburan ko'chirib yuborilgan. Temurning o'zi esa odil va insonparvar podsho sifatida tasvirlandi. Uning shaxsi ko'p jihatdan ideallashtirildi" [1: 7].

Agar biz Amir Temur o'z ishlarini o'sha davr siyosiy vaziyati nuqtai nazaridan baholagan,

deydigan bo'lsak, B.Ahmedovning bu fikri Amir Temurning mukammal jamiyati haqidagi fikrlarini va harakatlarining mazmunini o'zgartira olmaydi. Chunki o'sha davrning xalqaro siyosiy vaziyati va, umuman, siyosiy jarayon Amir Temurdek adolatli shohning jahongirlik libosini kiyishini shart qilib qo'yardi. Aks holda, bunga da'vogar bo'lgan turk sultoni Boyaziddun yoni ostin-ustun qilishiga shubha yo'q edi. Shuning uchun bir-biriga ham siyosiy dasturi va shaxsiy xislatlari jihatidan zid bo'lgan podshohlarning qaysi biri jahongirlik qilishi kerakligini dunyo xalqlarining o'zi baholagan edi. Buni biz yuqorida aytib o'tganimizdek, Ovrupo xalqlarining hozirgacha Amir Temurni o'z xaloskorlari, deb eslashi bizningcha yetarli dalil bo'lsa kerak. Chunki, Amir Temurning dunyoda mukammal insonparvar jamiyat o'rnatishga qaratilgan harakatlari uning siyosati bilan hech qachon zid kelmagan.

Biz Amir Temur haqidagi manbalarni o'rganar ekanmiz, uning har bir qadami o'z saltanatida adolat o'rnatish, bosib olingan yerlar xalqlarining madaniyatini hurmatlash, uni o'zlashtirish va boyitishga qaratilganligini, u xalqlarning azizu-avliyolar hurmatini o'z o'rniga qo'yganliklarini, eng muhimi saltanatning biror burchida gado zotini qoldirmaslikni o'ziga dastur qilib olganligining guvohi bo'lamiz. Amir Temur ijtimoiy qarashlarining muhim xususiyati shundan iboratki, fuqarolarning hech bir qismi, hech bir guruhi uning saxovati va muravvatidan chetda qolmagan va bu ishlarni uning shaxsan o'zi nazorat qilib turgan. Xalqni haqiqiy ijtimoiy muhofaza qilishning nazariy tamoyillarini berish bilan birga uni amalga oshirishga ham harakat qilgan.

U o'z saltanatining qudrati, o'lchovi va mezoni sifatida xalq va uning farovonligi hamda siyosatidan roziligini olgan edi. Chunki, Amir Temur uchun xalq farovonligi va podshoh siyosatidan ulusning roziligi saltanat uchun eng zarur va uning mavjudligining bosh mezonidir. Xalqdan ajralgan va unga xizmat qimaydigan saltanat halokatga mahkumdur. Temur o'zining butun hurmatini, saltanat qudratini va dunyoni zabt etishning asosiy sabablari qilib shularni ko'rsatadi.

Amir Temur o'z davrida ulug'lanishining asosiy sababi shu ediki, u o'z siyosatini va davlatni boshqarishni xalqni ishontirish yo'li bilan olib bordi va ishontira oldi ham. Lekin u hech qachon o'z siyosatini kaltaklash yoki kaltak ishlatish usuli bilan olib bormagan. Uning siyosati asosini ishontira olish usuli egallardi. Shuning uchun ham "Qaysi hokim hukmining ta'siri cho'p va kaltaklash ta'siridan kamroq bo'lsa, unday hokim hukumat yurgizishga yaroqsizdir" deyiladi [1: 57].

U o'z saltanatining qonun-qoidalarini hal qilingan masalalar tafsilotini boshqa xalqlar va davlatlar uchun ham va umuman avlodlar uchun zarur hisoblagan va shu maqsadda devon majlislarida navbatma-navbat hozir bo'lib, majlislarda ko'rilgan va hal qilingan ishlarning tafsilotini daftarga yozib borish uchun maxsus kotiblar "majlisnavislar" tayinlangan. Bularning ishlari faqat majlislar bayoni bilan cheklanmasdan, arz qilingan gaplar, chiqarilgan hukmlar, juz'iy ishlargacha hatto podshoning boshidan o'tgan voqealarni yozib borishi lozim edi. Shu bilan birga, "Temur mamlakat saltanati va uning tizimi va uslubi qanday bo'lishidan qat'iy nazar ularning har birining o'z siri bo'lishi kerakligini uqtirgan" [1: 95].

Amir Temur qurmoqchi bo'lgan jamiyatning asosiy vazifalaridan yana biri xalq ahvolidan xabardor bo'lib turish va sodir bo'layotgan xalq ahvolini ifodalovchi har bir voqeani to'g'ri yozib borish lozim bo'lgan. Shuning uchun ham Amir Temur har bir shahar va qishloqda xabarnavislar tayinlab, bo'lgan voqea va hodisalarni to'g'ri yozib borishni uqtirgan. Voqealarni soxtalashtirgan va yo bo'lmasa bo'rttirib yozgan xabarnavislarni qattiq jazolagan. Unga muvofiq jismoniy jazolar berilgan: avval barmoqlarni, keyin esa qo'llarni kestirgan. Amir Temur nazarida biror-bir xalqparvar, mukammal jamiyat qurmoqchi bo'lgan shoh ushbu xabarlarini kunma-kun, haftama-hafta, oyma-oy bilib borishi va shunga qarab xulosa chiqarishi lozim bo'lgan.

Sultoniya yepiskopining esdaligida yozilishicha, "Temurbek o'zini quchoq ochib qarshilagan, unga darvozalarini o'z ixtiyori bilan ochgan shaharlar aholisining joniga, moliga daxl qilmaydi. Shuning uchun ham ko'pgina qal'alar

Temurbekka jangsiz taslim bo'lishni ma'qul ko'rishgan. Agar biror-bir ayol kishiga zo'rlik ishlatilsa yoki Temurbekning tasarrufidagi hududda biror-bir talonchilik ro'y bersa, u bu ishni qilganlarni shafqatsiz jazolaydi. ... Men dunyoda bungacha ham bundan keyin ham Temurbek singari qattiqqo'l odam bo'lmasa kerak deb o'ylayman [4: 22].

Amir Temurning insonparvarlik g'oyalari uning siyosati bilan uyg'unlashib ketadi. Chunki u o'z yurishlarida insonparvarlikning eng nozik tamoyillariga amal qilib, o'z yurishlarining muvaffaqiyatini ta'minlagan. Buni biz Marsel Brionning "Men kim, Sohibqiron – jahongir Temur" asarida keltirgan quyidagi dalillardan bilib olishimiz mumkin: "Qilichim qarshisida g'arb u sharq titragan men kabi hukmdor kezi kelganda mehr-muruvvatli bo'lishim kerak, deb hisoblayman. Ayrim mayda-chuyda narsalarga ko'z yumaman. Ularga e'tibor bersam, buyuk ishlar, yuksak natijalarga kechikaman" [4: 260].

Amir Temur markaziy davlat tizimini ixcham va ishchan qilib tuzdi va bunda songa emas sifatga e'tibor berdi. Davlat ishiga imonli, diyonatli kishilarni o'tqazdi. Davlatni boy qilishni 4 omilga bog'liq deb bildi:

1. Saltanat 2. Xazina 3. Qo'shin (sipoh masalasiga) 4. Raiyat (qoraxalq). Demak, Amir Temur dono hukmdor bo'lib, ham siyosiy ham ma'naviy jihatdan juda katta tarixiy ahamiyatga egadir. Bular:

1. Amir Temur XIV asrdayoq mamlakat va mintaqalararo munosabatlarni chuqurlashtirib iqtisodiy makonga birlashtirishga harakat qildi. Integratsiyani ishlab chiqib Buyuk ipak yo'li o'tgan mamlakatlar o'rtasida madaniyatlar muloqotini boshlab berdi.

2. Amir Temur davlat tizimi va boshqaruvni tashkil etishda o'ziga xos maktab yaratdi, adolatli jamiyat qaror toptirishda qonun ustivorligiga rioya qildi.

3. Amir Temur davlatchilik tamoyillarini rivojlantirdi, uni aql-idrok salohiyatiga, taktik va strategik asosida shakllantirdi.

4. Amir Temur saltanati ma'naviyat va oliy darajadagi madaniyatga yo'g'rilgan saltanat edi.

Amir Temur o'zining "Temur tuzuklari" da 1342-1405-yillar orasida Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy ahvoli, qo'shni mamlakatlar va

xalqlar bilan bo'lgan o'zaro munosabatlari haqida hikoya qilinadi. "Temur tuzuklari"da Amir Temurning asosiy doktrinasini – jamiyatga, ijtimoiy-siyosiy hayotga qarshi, birlashgan qudratli feodal davlatning siyosiy va axloqiy prinsiplari ifodalangan. "Temur Tuzuklari" – podsholarning turish-turmush va odob-axloq meyorlarini belgilovchi risoladir. Asar 2 qismdan iborat bo'lib:

- Birinchi qismda jahon tarixida mashhur foh, sarkarda va iste'dodli davlat arbobi sifatida nom qoldirgan Amir Temurning 7 yoshi (1324) dan to'vafotiga (1405 yil 18 fevral) qadar kechgan hayoti bayon etilgan.

-Ikkinchi qism Jahongirning nomidan aytilgan va uning toj-u taxt vorislariga atalgan o'ziga xos vasiyat va pand-nasihatlaridan iborat.

Amir Temur shaharlarni tiklash va obodonlashtirishiga hokimiyat tepasiga kelishi bilanoq astoydil kirishdi. Masalan, "1371-1372-yillarda poytaxt Samarqandning buzulib ketgan hisori (qal'a) va uzunligi 70 chaqirim atrofida bo'lgan devorini tiklatdi. O'shanda Shahriston (tashqi shahar) va uning 6 darvozasi (Shayzoda Ohanin, Feruza, So'zangaron, Korizgoh, Chorsu) ichida 4 qavatli 2 ulkan saroy Ko'ksaroy va Bustonsaroy bunyod etildi, shahar ko'chalari va bozorlari obod qilindi. Shohi Zindada o'ljaoyi (o'ljoy Turkonog'a) Tug'liqtegin, qutlug' Turkon og'a Shirinbeka maqbaralari, xonaqoh va Chortoq qurildi. Temurning rag'batini bilan Samarqand Chorsusida Tim va shaharning u boshidan bu boshigacha kesib o'tgan shoh ko'cha Ruhobod maqbaralari ham qurildi" [2:4]. "Ko'ksaroy – bu imorat Samarqandning arkida (o'rda-hozirgi Tuproqo'rg'on) bo'lib, Amir Temur tomonidan solingan to'rt oshyona (to'rt qavatli) yuksak bir bino edi. Ko'ktosh hozirgi zamonamizgacha Samarqandning qo'rg'onida salomat qolgan katta bir toshdir" [3: 29].

"Shunisi e'tiborga sazovorki, bir-biridan ancha masofada qurilgan uchta hashamatli maqbara – Qutbi Chohardahum, Ruhobod va Go'ri Amir bir-biriga o'xshashdir. Ularning gumbazlari Samarqandda serob bo'lgan ko'm-

ko'k daraxtlar osha qad ko'tarib turibdi" [6:34]. "O'z sohasida kamolotga intilish temuriylar davri hunarmandchiligining asosiy xususiyatiga aylandi. Bu ayniqsa, shaharsozlikda yaqqol namoyon bo'ldi" [5: 28].

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlaymizki, musulmon sharqi, ayniqsa, Markaziy Osiyo madaniyati tarixida Amir Temur hamda Temuriylarning hukmronlik davri XIV asrning ikkinchi yarmidan XVI asrning boshlarigacha bo'lgan davr so'nggi umumiy tarixiy rivojlanishga juda katta ta'sir ko'rsatgan nihoyatda yorqin, sarmazmun, samarali davr hisoblanadi. Bu davrda Movoraunnahr va Xuroson ijtimoiy taraqqiyotning barcha jabhalarida: iqtisodda, siyosatda, madaniyatda, ma'naviy hayotda butun O'rta Sharqda markaziy o'rinni mustahkam egallab turish, yuqori mavqega ega bo'lish darajasiga ko'tarildi. Madaniyat, ilm-fan sohasida islom Sharqining barcha o'lkalarigina emas, Ovrupo mamlakatlarida ham katta e'tiborga sazovor bo'ladi. Bu davrda o'zbek tili adabiy til sifatida, bevosita turkiy yozma madaniyat uzil-kesil shakllandi va bu sohadagi O'rta Osiyoning so'nggi rivojini belgilab berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аҳмедов Б. Темур тузуклари ҳақида икки оғиз сўз. Темур тузуклари,- Т.: Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991.
2. Аҳмедов Б. Амир Темурнинг тарихдаги ўрни. Мулоқот. 1996, № 5.
3. Айний С. Эски осорлар. Чил устун, Кўксарой, Чиннихона ва Кўктош. Маориф ва ўқитувчи. 1926, № 7.
4. Марсель Брион. Менким, Соҳибқирон – жаҳонгир Темур. Тошкент, Янги аср авлоди, 2014.
5. Массон М.Е., Пугаченкова Г.А. Шахрисабз при Тимуре и Улугбека. Тр.САГУ., Т., 1953, с.28.
6. Пугаченкова Г. Темурнинг меъморий мероси. Т: 1996.
7. Темур тузуклари .Т.: Ф.Фулом номидаги нашриёт, 1991.

